

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

ERGASHEVA RASHIDA ABDUG‘ANIYEVNA

**TRIKOTAJ TO‘QIMA TURINI BASHORATLASH ASOSIDA AYOLLAR
USTKI KIYIMI DIZAYN-LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH TADQIQI**

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Ergasheva Rashida Abdug‘aniyevnaning

Trikotaj to‘qima turini bashoratlash asosida ayollar ustki kiyimi dizayn -
loyihasini ishlab chiqish tadqiqi..... 3

Ergasheva Rashida Abdug‘aniyevnaning

Исследование по разработке дизайн-проекта верхней женской одежды
на основе прогнозирования вида трикотажного полотна..... 25

Ergasheva Rashida Abdug‘aniyevnaning

Research on the development of a design project for women's outerwear
based on forecasting the type of knitted fabric..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published

Works..... 54

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

ERGASHEVA RASHIDA ABDUG‘ANIYEVNA

**TRIKOTAJ TO‘QIMA TURINI BASHORATLASH ASOSIDA
AYOLLAR USTKI KIYIMI DIZAYN-LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH
TADQIQI**

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.PhD/T1027 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ntsi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoliqov Qurbonali Madaminovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Po'latova Sabohat Usmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Shog'ofurov Shaxboz Shokirjon o'g'li
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "15" fevral soat 15³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, janubiy aylanma yo'li ko'chasi 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04. e-mail: info@ntsi.uz, Namangan to'qimachilik sanoati instituti 1-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan to'qimachilik sanoati institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№10-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160605, Namangan sh., Janubiy aylanma yo'li ko'chasi 17-uy. Tel.: (+99855) 255-43-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "04" fevral kuni tarqatildi.
(2024-yil "13" noyabrda 29 -raqamli reestr bayonnomasi).



Handwritten signature in blue ink.

Z.E.Erkinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, texnika fanlari doktori, dotsent

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

Handwritten signature in blue ink.

J.Q.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik va yengil sanoat trikotaj matolari hamda tayyor buyumlarni ishlab chiqarish, mahsulotlar assortimentining turlarini kengaytirish hamda resurstejamkor texnologiyalardan samarali foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda kiyim turiga xos ikki qatlamli, naqshli to‘qima ishlab chiqarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu bilan bir qatorda sifatli va raqobatbardosh ayollar ustki trikotaj tayyor mahsulotlarini olishning zarurligi xomashyo-mato-ustki kiyim konsepsiyasiga asoslanadi hamda tikuvchilik buyumlarini moda talabiga mos, zamonaviy ko‘rinishda loyihalashni takomillashtirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, jumladan trikotaj to‘qimasini olish jarayonida to‘qimani hajm zichligi koretkani tezligi 40 dan 80 oraliqdagi qiymatlarida trikotaj to‘qimasini bo‘yi bo‘yicha cho‘zilish xossalari eng past ko‘rsatkichga ega ekanligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda xomashyoni xususiyatlarini inobatga olgan holda texnologiyani avtomatlashtirish, raqobatbardosh hamda eksportbop tikuv-trikotaj mahsulotlarining yangi assortimentini yaratish va ayollar ustki trikotaj kiyimlarini konstruksiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, Ushbu yo‘nalishda, jumladan, ikki qatlamli ustki trikotaj to‘qimalarini ranglar kompozitsiyasi tahlili asosida ayollar ustki trikotaj kiyimlarini konstruksiya chizmalarini ishlab chiqish va tikish texnologik tartibini tuzish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Su bilan birga, texnologik ko‘rsatkichlarning optimal variantlari inobatga olingan trikotaj to‘qimasining fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq qiyosiy olingan natijalarning real iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli doldarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini o‘rtasida bozor munosabatlarini shakllantirish, paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy klaster shakllarini joriy qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini o‘rtasida bozor munosabatlarini shakllantirish, paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy klaster shakllarini joriy qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha vazifalar belgilangan.¹ Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, tikuv va tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasining ilmiy asoslarini rivojlantirish, texnologik jarayonda mahsulotga ta’sir etuvchi parametrlar va ularning optimal ko‘rsatkichlarini aniqlash, shuningdek raqobatbardosh ayollar ustki trikotaj kiyimlari assortimentini kengaytirish, mavjud xomashyolardan samarali foydalanish hisobiga tikuv-trikotaj sanoati uchun muhim hisoblangan kiyimlarni sifatini ta’minlash muhim hisoblanadi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda, 2024 yil, 16-apreldagi Prezident raisligida to‘qimachilik sohasida eksport va investitsiya hajmlarini oshirish masalalari yuzasidan videosektor yi‘g‘ilishida belgilangan vazifalari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II.«Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahon amaliyotida trikotaj mahsulotlarini olish texnologiyasini takomillashtirish bilan bog‘liq hamda, to‘qimachilik va yengil sanoatning yangi texnika-texnologiyasini yaratish, zamonaviy, bejirim tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda xom ashyo parametrlarining tadqiqotlari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari jumladan: China Jiliang University (AAU) Donghua University, Soochow University (Suzhou), Indian instituti of Science (Hindiston), University of the Pacific, San Francisco (AQSh), Moskva davlat texnologiya va dizayn Universiteti (Rossiya), Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti shuningdek, Namangan to‘qimachilik sanoati instituti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Dunyoda tikuv-trikotaj tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini tadbiq etish borasida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ammo, ikki qatlamli ustki trikotaj matolarining ijobiy xususiyatlarini bashoratlash hamda, “xomashyo -trikotaj - tayyor kiyim” konsepsiyasi asosida ayollar zamonaviy kiyim eskiz model na‘munalarini ishlab chiqarish bo‘yicha deyarli tadqiqot ishlari olib borilmaganligi aniqlandi.

Muammoni o‘rganganlik darajasi. Bugungi kunda ushbu mavzuga tegishli muammolar bir qator olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan. Trikotaj mahsulotlarini olish texnologiyasini takomillashtirish bilan bog‘liq hamda, to‘qimachilik va yengil sanoatning yangi texnika-texnologiyasini yaratish to‘qimachilik xom ashyo bazasini rivojlantirish shuningdek, ulardan kelib chiqib tikuv-trikotaj tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan: А.С. Долидович, Е.П. Поспелов, И.И. Шалов, Л.А. Кудрявин, В.М. Лазаренко, В.А. Зиноева, И.Г. Цитович, Е.Онофрей, S.A.Frydrych va boshqalar.

Tikuv-trikotaj tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Bulardan: M.M.Muqimov., X.Alimova., N.R.Xonxadjayeva., F.U.Nigmatova., S.Sh.Tashpulatov., Q.M.Xoliqov., B.F.Mirusmanov., K.Z.Yunusov, N.N.Nabidjanova, N.B.Maqsudov, A.B.Qosimova. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida xomashyoni qayta ishlash, tikuv-trikotaj tayyor mahsulot turini kengaytirish texnologiyasini takomillashtirish va loyihalashning amaliyotda qo'llash masalalarni yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, ikki qatlamli ustki trikotajning optimal xususiyatlarini bashoratlash hamda, "xomashyo- trikotaj -kiyim" konsepsiyasi asosida ayollar zamonaviy kiyim eskiz model na'munalarini ishlab chiqarish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar yetarli emasligi aniqlandi. Shu bois, mazkur dissertatsiya ishida trikotaj to'qimalarining optimal xususiyatlarini bashoratlash hamda, "xomashyo - trikotaj - tayyor kiyim" konsepsiyasi asosida ayollar zamonaviy ustki trikotaj kiyimlarini optimallashtirish muammolarni yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrasida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ikki qatlamli ustki trikotajning optimal variantlarini ishlab chiqarishni bashoratlash hamda, "xomashyo - trikotaj - tayyor kiyim" konsepsiyasi asosida ayollar zamonaviy kiyim eskiz modellarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Zamonaviy moda yo'nalishidagi ayollar ustki trikotaj kiyim modellarini o'rganish va tahlil qilish;

ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalari va ranglar kompozitsiyasini o'rganish va tahlil qilish;

ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalari va ranglar kompozitsiyasi asosida zamonaviy moda yo'nalishidagi ayollar ustki trikotaj kiyim eskiz model na'munalarini ishlab chiqish va ularni asoslash;

ayollar zamonaviy ustki kiyimlarini bashoratlash asosida yangi tuzilishdagi, ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalarini ishlab chiqish va ularni asoslash;

yangi tuzilishdagi, ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalarini fizik-mexanik sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va ularni tahlil qilish;

trikotaj hususiyatlarini bashoratlash asosida ishlab chiqilgan yangi tuzilishdagi, ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda ayollar zamonaviy kiyimlarini optimallashtirish asosida nazariy tadqiq etish;

ayollar zamonaviy kiyimlarini konstruksiya chizmalarini ishlab chiqish va tikish texnologik tartibini tuzish;

iqtisodiy samaradorlik hisobini ishlab chiqish

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ayollar zamonaviy ustki kiyimlarini avvaldan bashoratlash asosida yangi, ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalarining ijobiy xususiyati, mahsulotni loyihalashning ratsional parametrlari va tikish texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini “WONDERFULL” yassi ignadonli fang trikotaj-to‘quv mashinalarida poliakrilnitril ipidan ikki qatlamli trikotaj asosida ayollar ustki kiyimlarini konstruksiyasini yangi dizayn loyihasi asosida tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, matematik statistika, ehtimollar nazariyasi, oliy matematika va tajribalarni rejalash va optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iste'molchilar talablari asosida ayollar zamonaviy ustki trikotaj kiyimlarining eskiz model na'munalarini yangi assortimentining konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

trikotaj to‘qimasining bo‘yi bo‘yicha cho‘zilishini o‘zgarishiga hajm zichligi va koretka tezligiga ta’sir etuvchi maqbul qiymatlarning matematik modeli ishlab chiqilgan;

eskiz modeli, to‘qimaning hajm zichligi va koretka tezligiga ta’sir etuvchi maqbul qiymatlarni inobatga olgan holda ayollar zamonaviy kiyimining deformatsion qiymatlari avvaldan bashoratlangan;

ustki trikotaj to‘qimalarining shartli qayishqoq va shartli qoldiq deformatsiya hisobini inobatga olgan holda kiyimning soddalashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy, amaliy va tajribaviy ilmiy izlanishlar natijasi hamda kiyimga bo‘lgan ehtiyojni niobatga olgan xolda ayollar ustki trikotaj kiyim eskiz loyiha chizmalari ishlab chiqilgan;

fizik-mexanik xususiyatlari va texnologik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan ikki qatlamli naqshli trikotaj to‘qimalarining yangi tuzilishi va ularni olish usullari ishlab chiqilgan;

soddalashtirilgan konstruksiya asosida ayollar ustki trikotaj kiyim to‘plamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida nazariy va amaliy natijalarning o‘zaro mosligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalaridan foydalanilgan holda asosli o‘tkazilganligi ularni mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq qiyosiy olingan natijalarning real iqtisodiy samaradorlikni ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xom ashyo sarfi kam, bo‘lgan hajm zichligi kabi texnologik ko‘rsatkichlarning optimal variantlari inobatga olingan trikotaj to‘qimasining bo‘yi bo‘yicha cho‘zilishini o‘zgarishiga hajm zichligi hamda koretka tezligi ta’sirini matematik model asosida optimallashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqori sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan va xom ashyo sarfi kam bo‘lgan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli naqshli trikotaj to‘qimalarining tuzilishi va olish usullarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Trikotaj to‘qima turini bashoratlash asosida ayollar ustki kiyim dizayn-loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan natijalari asosida:

zamonaviy ustki trikotaj eskiz model na'munalari asosida xususiyati bashoratlangan yangi to'qimadagi naqshli ustki trikotaj assortimentlari ishlab chiqish "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalarda, xususan "Porloq Chust Brendi" MCHJ da hamda ikki qatlamli ustki trikotaj to'qimalarining ijobiy xususiyatlarini bashoratlash hamda, "xomashyo - trikotaj - tayyor kiyim" konsepsiyasi asosida ayollar zamonaviy kiyim eskiz model na'munalari ishlab chiqish «IDEAL TEKSTIL ORZU» mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlab chiqarishga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 18.11.2024 №03/25-3111-son ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan ikki qatlamli trikotaj to'qimalaridan olingan ayollar ustki kiyimlari o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlillari natijasida mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalariga asosan, bir yilga ayollar trikotaj kiyimlarini sanoat sharoitida ishlab chiqarib sotishdan (1 dona mahsulot uchun) 16800000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola nashr etilgan, shundan 7 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 4 ta dasturga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishni aprobatatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Trikotaj sanoatida juda ko'p turdagi to'qimalar mavjud bo'lib, ich kiyim, yengil kiyim va ustki kiyim mahsulotlari uchun asosan jakkard, press va ikki qatlamli trikotaj to'qimalari qo'llaniladi. Trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishni yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, yangi tarkib va tuzilishli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarish, assortiment turlarini kengaytirish va xomashyo sarfini kamaytirish maqsadida so'nggi yillarda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalarini olish vazifasi trikotaj sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari nazariy va amaliy tadqiq etish masalasining dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayollar ustki trikotaj kiyimlarini loyihalashda tavsiya etiladigan to'qima turlari va tayyor kiyim bo'yicha muammolarni o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda va mamlakatimizda zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadigan innovatsion texnika-texnologiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritib berilgan. Bu borada, tikuv va tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasining ilmiy asoslarini rivojlantirish, texnologik jarayonda mahsulotga ta'sir etuvchi parametrlar va ularning optimal ko'rsatkichlarini aniqlash, shuningdek raqobatbardosh ayollar ustki trikotaj kiyimlari assortimentini kengaytirish, mavjud xomashyolardan samarali foydalanish hisobiga tikuv-trikotaj sanoati uchun muhim hisoblangan kiyimlarni sifatini ta'minlash kki qatlamli yangi to'qimalar asosida ayollar ustki kiyim to'plamlarini soddalashtirilgan konstruksiyasi asosida tikish texnologiyasini takomillashtirish usullariga alohida e'tibor qaratilish kerakligi asoslab berilgan.

Trikotaj kiyimlarini loyihalash va ularning material xususiyatlarini tadqiqot qilish muammolariga bir qator xorijlik va respublikamiz olimlari katta hissa qo'shib kelmoqdalar.


Iste'molchilar talablarini o'rganish maqsadida 450 nafar talaba, o'qituvchi va tarbiyachilar orasida test so'rovnomasi o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida to'g'ri bichimli kiyim ko'rsatkichi 45% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“Ikki qatlamli ayollar ustki trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarish tadqiqi”** deb nomlangan II - bobida kiyim turlari shu jumladan tikuv-trikotaj mahsulotlari doimo va uzluksiz yangilanib borishi har yili yengil sanoatda yangi dizayndagi tikuv trikotaj eskiz modellar ishlab chiqarishga joriy qilinishi to'g'risida ma'lumot berilgan. Kiyimning asosiy materiali bo'lgan matolarni faqat tuzilishi, tashqi ko'rinish va rang-baranglik jihatidagina emas, balki xususiyat va tola tartibi ham to'xtovsiz o'zgarib turadi. Shundan kelib chiqib kiyimni ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarib boradi.

Bashoratlash asosida birinchi model uchun bo'yin va yeng o'mizini shaklbarqarorligi ta'minlash maqsadida elastik rezinali rebana tavsiya etiladi. Cho'ntak og'zi va buyum etagi elastik to'liqsiz lastik to'qimali asosda ishlab chiqilgan. Ort bo'lagi yahlit, to'g'ri bichimli. Buyum uzunligi tizzagacha loyihalangan.


Tavsiya etiladigan trikotaj to'qimasi ikki qatlamli bo'lib, ustki qatlami olti burchakli, ort to'rt burchakli geometrik shaklga ega. Mato uchun asosan yashil rang tanlangan, shakl chetlariga oq rang tavsiya etilgan. Ort bo'lak matosining asosi, geometrik romb shakli yashil rangda. Yangi to'qima trikotajning g'ovakligi mahsulotni yengillashtirishga xizmat qiladi. Kiyim yengilligi (og'irligi) inson salomatligi va tananing charchashini oldini oladi.

Ishlab chiqilgan 2-model ayollar uchun bahor va kuz fasllariga mo'ljallangan. Trapetsiyasimon bichimli jemferning yangi keng reglan bichimli. Bo'yin o'mizi va buyum etagi elastik rezinali rebana tavsiya etiladi va pastki tomonga kengaytirilgan.



1-rasm. Ayollar ikki qatlamli trikotaj kiyimi qanday bo'lishini hohlaysiz tanlovi natijasi

O'smir yoshdagi qizlar va ayollar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasining eng yuqori foizini to'g'ri bichimli kiyim ko'rsatgichi 45%, nim yopishgan siluetdagi 5%, yopishgan siluetdagi 36%, trapetsiyasimon siluetdagi 14% ni tashkil etdi




2-rasm. Ustki kiyimlarda yeng turlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijasi

Ustki kiyimlarida yengga turlari bo'yicha reglan yeng 38%, o'tkazma yeng. 10%, yengsiz 40%, yaxlit. 12% ni tashkil etdi



3-rasm. Ikki qatlamli ustki trikotaj kiyimingiz qanday rang tanlovi

Respondentlarni talablariga ko'ra kul rang 35%, pushti 25%, yashil 28%, qora 12% ni tashkil qildi.



4-rasm. Ustki kiyimlardagi qaysi noqulayliklar dilingizni xira qiladi tanlovida

Matoning pilliglanishi 40%, old bo'lakning orqaga tortilishi 20%, rangning tez xiralashishi 30% ga ega bo'ldi.

Ikki qatlamli to'qima matolarining rangi pushti va oq ranglarda uyg'unlashgan. Jemperning uzunligi bo'ksagacha uni shim va yubkalar bilan kiyish tavsiya etiladi. Xozirgi kunda keng tarqalgan OVER SAYNS usulida modellashtirilgan.

Yangi dizayndagi 3-model uchun ikki qatlamli, shaklbarqaror trikotaj to'qimalar tavsiya etiladi. Mazkur eskiz model namunalari yilning bahor va kuz fasllarida kiyish uchun mo'ljallangan nimcha. Old va ort bo'lagi yahlit bichimli. Bo'ksani yopish maqsadida ort bo'lagi old bo'lagidan 8-10 sm uzunroq qilib modellashtirilgan. Old bo'lak bo'yin o'mizi ovalsimon qilib o'yilgan. Bo'yin, yeng o'mizi va etak

qismlariga elastik rezinali rebana biriktirib tikilgan, yeng uchi keng qaytarma manjetli. To‘qimani oq va kulrang kombinatsiyasida tavsiya etiladi (1.5 a,b,c, d,e,f-rasm.).



a) 1-tavsiya model ko‘rinishi



b) 2- tavsiya model ko‘rinishi



c) 3- tavsiya model ko‘rinishi



d) 4- tavsiya model ko‘rinishi



e) 5- tavsiya model ko‘rinishi



f) 6- tavsiya model ko‘rinishi


5-rasm. Tavsiya modellar ko‘rinishi

Zamonaviy WONDERFULL yassi ignadonli fang trikotaj-to‘quv mashinalari ustki kiyimning: yoqalar, manjet, cho‘ntaklar, belbog‘larni va h.k. to‘qish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, avtomatda ustki kiyim uchun mo‘ljallangan mato va kuponlar ishlab chiqarish mumkin.


Trikotaj to‘qimalari yangi tuzilishlari asosida ularni assortimentini kengaytirish, WONDERFULL rusumli (Xitoy) yassi ignadonli to‘quv mashinasida unung texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ikki qatlamli trikotaj to‘qima tuzilishining 6 ta varianti va uni to‘qish usuli ishlab chiqildi. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining ishlab chiqilgan variantlari bir-biridan mustaqil qatlamlarini biriktirishda asos ipi yordamida amalga oshirilib, ular bir-biridan naqshi, rapporti va xususiyatlari bo‘yicha farq qiladi. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining texnologik ko‘rsatkichlari Namangan to‘qimachilik sanoati institutining trikotaj to‘quv xonasida

Long usulda oʻrnatilgan sinov laboratoriyasi jihozlarida oʻtkazildi va jadvalda keltirildi.


Namunalarni toʻqish hamda naqsh berishda oldingi va orqa qatlamlarni birlashtirish uchun aralash toʻqimasidan foydalanilgan. (I-II-III-IV-V-VI variantlar).




I-variant




II-variant




III-variant



IV-variant



V-variant



VI-variant

6-rasm. Ikki qatlamli trikotaj toʻqimalarining koʻrinishi hamda grafik yozuvi

I-variant namunasining birinchi qatorini toʻqishda orqa ignadonda 2 va 3-ignadonlarda halqa hosil qilinib 10-ignadongacha protyajka tashlangan hamda 10, 11-ignadonlardan yana halqa hosil qilingan. 2-qatorda old ignadonlarda yuqoridagi kabi halqa hosil qilingan boʻlib, 3-qatorda ikki mustaqil qatlamlarni birlashtirish uchun lastik usuldan foydalanilgan.

II-variant namunasini toʻqishda ham I variant namunasi kabi jarayonlar amalga oshirilgan. I variant namunasidan farqi 3 va 4 qatorni toʻqishda orqa ignadonda glad toʻqimasidan foydalanilgan. 4-qator old tomonni toʻqishda nabroskadan foydalanilgan.

III-variant namunasini toʻqishda aralash usuldan foydalanilgan.

IV-variant namunasi toʻqishda ham huddi II variant namunasi toʻqish orqali toʻqima toʻqib olingan II variantdan rapportlarini hamda naqsh shaklini oʻzgarishi bilan farqlanadi.

V-variant namunasini toʻqib olishda 1-qator orqa ignadonda glad toʻqimasi, ikkinchi qator old tomonni toʻqishda 1-ignadonda halqa hosil qilingan hamda 9-ignadonga qadar protyajka berilgan.

VI-variant namunasi V-variant namunasi kabi to‘qib olingan, V-variant namunasidan farqi 3-va 4-qatorlarni to‘qishda V-variantda lastik to‘qimasidan foydalanilgan, V-variant namunasida glad to‘qimalaridan foydalanilgan.

To‘qima qalinligi I-variantda 6,4 mm, II-variantda 6,6 mm, III-variantda 7,3 mm, IV-variantda 6,7 mm, V-variantda 7,2 mm, VI-variantda 6,6 mm ni tashkil qildi. Qalinlik asos namunaga nisbatan 3-14% gacha ortgani ma’lum bo‘ldi. Ishlab chiqarilgan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari tadqiq qilindi hamda ulardan ustki kiyim ishlab chiqarishga tavsiya etiladi.



V- variantdagi to‘qimaning ort ko‘rinishi



I- variantdagi to‘qimaning ort ko‘rinishi




IV-variantdagi to‘qimaning ort ko‘rinishi

7-rasm. Tanlab olingan maqbul variantdagi to‘qimalarning ort tomonidan ko‘rinishi

Havo o‘tkazuvchanli-materiallardan havo o‘tkazish qobiliyati bo‘lib, namunaning ikki tomonidagi havo bosimining ma’lum bo‘lgan farqli sharoitda 1 sekund vaqt ichida 1m² yuzadan o‘tgan havo hajmining miqdorini ifodalaydi.

Hajm zichligi $\delta\left(\frac{mg^3}{sm}\right)$




8-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining hajm zichligini o‘zgarishi

Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar		Variantlar					
		I/2	II	III	IV/3	V/1	VI
Iplarni turi №	Orqa qatlam	Poliakrilnitril ipi 35/2					
	Old qatlam	Poliakrilnitril ipi 35/2					
Halqa qadami A (mm)	Orqa qatlam	2,6	2,7	2,9	3,3	2,7	2,9
	Old qatlam	2,7	2,7	3,6	2,9	3,3	2,9
Halqa qatori balandligi B (mm)	Orqa qatlam	1,92	2	2	2,08	2,1	2,08
	Old qatlam	2,1	2,08	2,27	2,1	2,27	2,08
Gorizontal bo'yicha zichlik (halqalar soni)	Orqa qatlam	19	18	17	15	18	17
	Old qatlam	18	18	14	17	15	17
Vertikal bo'yicha zichlik (halqalar soni)	Orqa qatlam	26	25	25	24	23	24
	Old qatlam	23	24	22	23	22	24
Halqa ipi uzunligi L (mm)	Orqa qatlam	9,1	9,7	10,9	12,8	9,2	9,6
	Old qatlam	9	8,8	13,3	11,5	11,4	10,3
Trikotaj yuza zichligi Ms (gr/m ²)		785	781	872	809	844	789
Trikotaj qalinligi T (mm)		6,4	6,6	7,3	6,7	7,2	6,6
Hajm zichligi δ (mg/sm ³)		122,6	118,3	119,4	120,7	117,2	119,5

Trikotaj to'qimasining yuza zichligi o'zgarishi bilan uning qalinligi va boshqa fizik-mexanik xususiyatlari o'zgaradi.




9-rasm. Gorizontal bo'yicha zichlik o'zgarishi gistogrammasi

Eng yuqori havo o'tkazuvchanlik ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining I-variantida kuzatildi va uning qiymati 42,6 sm³/sm²·sek ni tashkil etdi. Eng kam havo o'tkazuvchanlik V-variant namunasida kuzatildi va uning qiymati 39,9 sm³/sm²·sek ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich asos to'qimasiga (I-variant) nisbatan 8% ga kam (1-jadval, 10-rasm).

Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini fizik-mexanik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar		Variantlar					
		I	II	III	IV	V	VI
Iplarni turlari, nomeri	Orqa tomon	Poliakrilnitril 35/2					
	Old tomon						
Havo o'tkazuvchanlik V (sm ³ /sm ² ·sek)		42,6	42,2	40,1	40,8	39,9	41,1
Uzilish kuchi R (N)	Bo'yi bo'yicha	508	546	540	552	549	539
	Eni bo'yicha	525	511	498	503	546	452
Uzilishgacha cho'zilish L (%)	Bo'yi bo'yicha	117,9	133,1	136,3	133,3	98,6	102,1
	Eni bo'yicha	189,5	133	128,1	187,2	190,9	152,6
Qaytmas deformatsiya ε _H (%)	Bo'yi bo'yicha	13	18	15	11	10	14
	Eni bo'yicha	10	15	17	13	12	20
Qaytar deformatsiya ε _o (%)	Bo'yi bo'yicha	87	92	85	89	90	86
	Eni bo'yicha	90	85	83	87	88	80
Ishqalanishga chidamligi I (ming. aylana)		31,3	30,8	30,3	32,7	31,6	28,9


Havo o'tkazuvchanlik V (sm³/sm²·sek)

10-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari gistogrammasi

Matolarni sifatini aniqlashda uzilish ko'rsatkichi katta ahamiyatga ega. Trikotaj to'qimalari uchun FOCT larda uning me'yoriy ko'rsatkichlari berilgan. Uzilish kuchi birligi nyuton. Uzilish kuchi namunalarni uzish uchun sarf qilinadigan kuch tushuniladi. Berilgan namunalarni uzilish kuchi YG026T priborida aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsattiki, bo'yi bo'yicha eng pishiq to'qima IV-variant, uning ko'rsatkichi 552 N ga teng bo'lib, I-variantga nisbatan 7,9 % ga pishiqligi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi (2-jadval, 11-rasm). To'qima eni bo'yicha eng yuqori

pishiqlik V-variant namunasi, 546 N ni tashkil etdi. Asos namunaga nisbatan 6,9 % pishiqligi ma'lum bo'ldi.




11-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini uzilish kuchini o'zgarish gistogrammasi

Sarf qilingan kuch ta'sirida to'qimalarining cho'zilishi cho'ziluvchanlik deyiladi. Cho'ziluvchanlik sinalayotgan namunaning uzayishi bilan ifodalanadi.

Ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalarining bo'yi bo'yicha qaytar deformatsiya ulushi 86% dan 92% gacha chegarani ko'rsatdi, eni bo'yicha esa, 80% dan 90% gacha o'zgardi.

Yuqoridagi qaytar deformatsiya ko'rsatkichidan ma'lum bo'ldiki, ikki qatlamli trikotaj to'qima cho'zilgandan so'ng, o'z holatiga tez qaytishi ma'lum bo'ldi 12-rasm.



12-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini qaytar deformatsiya gistogrammasi

Olingan trikotaj namunalarini ishqalanishga chidamliligi yuqori bo'lgan variantlari bu I, IV va V-variantlaridir. I-variant ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichi 31,3 ming.ayl ni tashkil etsa, IV-variantni ishqalanishga chidamliligi 32,7 ni tashkil etib, bu variant namunamiz V-variant namunamizga nisbatan 3,4% ga ko'p (2-jadval).

Yuqorida keltirilgan akril ipidan olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining tuzilishining o'zgarishi va uni naqshini o'zgarishining fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sir etadi.


Trikotaj to‘qimalarning naqshi hamda tuzilishini o‘zgartirishining bir qator xususiyatlari yuqori bo‘lgan hamda tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lgan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha kompleks baholash ko‘pburchagini qurish har bir xususiyatlarini tasvirlovchi radius-vektorlar ajratilgan nuqtalarini ketma-ket birlashtirishdan iborat.

Ko‘pburchak maydonini topish uchun uchburchak maydonlari yig‘indisini hisoblab chiqiladi, unda radius-vektorlar ko‘pburchakni uchburchaklarga ajratadi.

Poliakrilnitril ipidan to‘qib olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha kompleks baholash hamda qiyosiy gistogrammalardan ma‘lum bo‘ldiki, eng yaxshi variant namunalari II-variant namuna (6322 mm^2), IV-variant (6310 mm^2) hamda V-variant namunasi (6390 mm^2) deb topildi.

Trikotaj to‘qimalarini olishdagi texnologik jarayonlar fizikaviy va mexanikaviy hodisalarning majmuasidan iborat bo‘lib, ularni faqatgina ilm va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalanibgina muvaffaqiyatli tadqiq etish mumkin. Shuning uchun matematik modellashtirish asosida ilmiy tadqiqot qilish maqsadga muvofiqdir.




13-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi

Nazariy-tajribaviy ITda ham nazariy, ham tajribaviy natijalar e‘tiborga olinib, hozirgi vaqtda ko‘proq nazariy-tajribaviy tadqiqotlar turidan ko‘proq foydalanilmoqda.

Ta‘sir etuvchi omillar sifatida kiruvchi omillar X_1 – Trikotaj to‘qimasini xajm zichligi, x_2 – koretkani tezligi olingan chiquvchi omil sifatida Y_1 – Trikotaj to‘qimasini

bo'yi bo'yicha cho'zilishi. Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash 3-jadvalda keltirilgan.



14-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalari sifat ko'rsatkichlari qiyosiy gistogrammasi

Formuladagi g_i doimiy koeffitsientlarning qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan;

Yuqoridagi taqqoslashlardan ko'rinadiki, y – Trikotaj to'qimani bo'yi bo'yicha cho'zuluvchanligi tuzilgan tenglamamizdagi $b_0, b_1, b_2, b_{12}, b_{22}$ quyidagi koeffitsientlar ahamiyatli ekan.

3-jadval

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash

Omillar nomi va belgilanishi		O'zgartirish sathlari					O'zgartirish oralig'i
		-1,414	-1	0	1	1,414	
Trikotaj to'qimasini hajm zichligi (δ (mg/sm ³))	x_1	114	118,3	122,6	126,9	131,2	4,3
Karetkani tezligi (sm/sek)	x_2	40	50	60	70	80	10

Demak, Trikotaj to'qimasini olinish jarayonidagi to'qimani xajm zichligi bilan koretkani tezligi o'rtasida quyidagi bog'lanish mavjud:

$$Y_R = 117.38 + 0.45x_1 + 0.50x_2 + 0.07x_1^2 - 0.71x_2^2$$

$$S_{mod}^2\{Y\} = \frac{2.331 - 0.468}{13 - 5 - (3 - 1)} = 0,310$$


$$F_R = \frac{S_{mod}^2\{Y\}}{S_M^2\{\bar{Y}\}} = \frac{0,310}{0,468} = 0,663$$

Fisher mezonining jadval qiymatini [48]4-ilovadan quyidagi shartlarda olamiz;

$$F_J [R_D = 0,95; f\{S_{mod}^2\{Y\}\} = 13 - 5 - (3 - 1) = 6; f\{S_M^2\} = 3 - 1 = 2] = 19.35$$

So'ngra mezonning hisobiy va jadval qiymatlarini o'zaro taqqoslaymiz;
 $F_R=0,663<19.35$

Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, kiruvchi parametr (x_1) va ikkinchi parametr (x_2) omillarining qabul qilingan minimal (-1) qiymatidan maksimal (1) qiymatigacha o'zgarib borganda va birinchi omilning o'rtacha qiymatidan foydalanib (Y_1) Trikotaj to'qimasini bo'yi bo'yicha cho'zilish xossasini o'zgarishi bo'yicha qiymatlar tasvirlangan.



15-rasm. Trikotaj to'qimasini xajm zichligi va koretkani tezligining trikotaj to'qimasini bo'yi bo'yicha cho'zilish xossasiga bog'liqlik grafigi


Chizmadan foydalanib trikotaj to'qimasini bo'yi bo'yicha cho'zilishini X_1 - Trikotaj to'qimasini xajm zichligi 114÷131,2 oraliqlarda va X_2 – koretkani tezligi 40÷80 oraliqdagi qiymatlarida (Y_1) Trikotaj to'qimasini bo'yi bo'yicha cho'zilish xosasi bo'yicha grafik ta'svirlangan. Bunda Trikotaj to'qimasini xajm zichligi -1÷0 gacha va koretkani tezligi -0,2÷-1 gacha bo'lgan oraliqlarda Trikotaj to'qimasini bo'yi bo'yicha cho'zilishi xossalari eng past qiymatga ega ekanligi va standart talabi GOST -28554 ga muvofiqiqligi aniqlangan.

Trikotaj to'qimasining xajm zichligi (X_1) 118,3 mg/sm³ va trikotaj mashinasini karetkasi tezligi 50 sm/sek bo'lganda trikotaj to'qimasini bo'yi bo'yicha cho'zilishi eng optimal ko'rsatkichiga ega bo'lmoqda.


Dissertatsiyaning “**Ayollar ustki trikotaj buyumlarining konstruktor-texnologik hujjatlarini ishlab chiqish**” deb nomlangan III - bobida ayollar ustki trikotaj mahsulotlari asos konstruksiya chizmasini ishlab chiqish.

Trikotaj buyumlar tayyorlash texnologiyasi usullari bo'yicha bichilgan, yarim muntazam va muntazam xillarga farqlanadi. Yarim muntazam buyumlar cheti yoq polotnolardan bichiladi. Bunday buyumlarning tanasi odatda yaxlit bichilgan bo'lib,


yeng va yoqa o‘mizlarigina o‘yiladi. Muntazam buyum detallari mo‘ljallangan razmer va shaklga mos qilib butunlay eshilgan ipdan yaxlit to‘qiladi.



16-rasm. ВДМИТ bo‘yicha AK chizmasi, sarafanni konstruktiv modellashtirish, soddalashtirilgan varianti



17-rasm. ВДМИТ bo‘yicha Reglan bichimli ushki kiyim asos konstruksiyasi, modellashtirish, soddalashtirilgan variantining old va ort bo‘lagi



18-rasm. a) ВДМИТ bo‘yicha ayollar nimcha asos konstruksiyasi va modellashtirilgan chizmasi, soddalashtirilgan varianti

Trikotaj buyumlarning 60% bichuv-tikuv usulida tayyorlanadi. Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida to'qima trikotajlarini ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari va buyumning vazifasini bashoratlash asosida yangi eskiz model namunalari ishlab chiqildi. (3.1;3.2;3.3-rasmlar)

Respondentlarni extiyijiga ko'ra o'rta yoshdagi ayollar ikki qatlamli shakl barqaror trikotaj to'qimasidan kundalik kiyimlar tavsiya etiladi. Ishlab chiqarish maqsadi inson tanasini tashqi muhit ta'siridan himoya qiladi, ikki qatlamli issiq saqlashi yuqori, yengil, rang saqlashi boshqa tolalarga nisbatan yaxshi. Trikotaj grammajiga qarab kiyim modellari sarafan, jemfer hamda bezrukafkalar ishlab chiqarish tavsiya etildi. Ishlab chiqilgan 1-model bahor va kuz fasllariga mo'ljallangan sarafan bo'lib to'g'ri bichimli, asosiy detallari old va ort bo'lakdan iborat. Old bo'lak chap yon tomonida qoplama cho'ntagi bor. Old bo'lak bo'yin o'mizi uchburchak shaklda bo'lib uning chuqurligi ko'krak uchinchi chizig'igacha loyohalanadi.

Ayollar ustki trikotaj kiyimlari asos konstruksiya chizmalari ВДМТИ metodikasi bo'yicha ishlab chiqildi va modellashtirilib sodalashtirilgan varianti. (16;17;18-rasmlar)

Trikotaj mahsulotlarini konstruksiya chizma hisob kitobini chiqarishda to'qima turiga e'tibor beriladi. quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflanadi: maqsadi, xom ashyosi, to'quv, ishlab chiqarish usuli, pardozlash. Maqsad bo'yicha

Kiyim konstruksiya chizma hisob kitoblarini ishlab chiqishda xorij adabiyoti Л. А. Кузнецова avtorligida "Конструирование трикотажных изделий" 2000 yilda nashr etilgan adabiyotining ВДМИТ ustki trikotaj kiyimlarini konstruktsiyalash va modellashtirish metodidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning "**Ayollar ustki trikotaj kiyimlarini tikish texnologik parametrlarini ishlab chiqish.**" deb nomlangan IV-bobida Ayollar ustki trikotaj kiyim detallarini biriktirishning turli usullari mavjud. Ikki qatlamli tikuv-trikotaj kiyimlarini biriktirishda akril to'quv ipida ketlovka yordamida biriktirib tikilgan. Hozirgi kunda tikuv mashinalarining turli konstruktsiyalari ishlab chiqarilmoqda, ulardan foydalanish sohalari kengayib bormoqda. Ikki ignadonli trikotaj ketlovka tikuv mashinasida buyum detallari biriktirib tikiladi (19-rasm).

Tikuv-trikotaj buyumlari eksplutatsiya jarayonida paydo bo'ladigan deformatsiyalar tufayli past shakl saqlovchanlikka ega bo'lganligi bois shakl mustahkamligiga e'tibor qaratish kerak. To'qimachilik mahsulotlariga nisbatan trikotaj to'qimasining farqi shundaki, halqalar shaklining o'zgarishi hisobiga barcha yo'nalishlar bo'yicha cho'zuluvchan va o'lchamlarini o'zgartirish xususiyatiga ega.

Ikki ignadonli trikotaj mashinasining ikkala ignadonida alohida-alohida qatlamlar hosil qilindi va ikkala qatlam asos ipi yordamida birlashtiriladi. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalari orasida katta bo'shliq hosil qilinadi shuning uchun hajmdorligi yuqori bo'ladi.

Trikotaj buyum detallarini biriktirishda ketlovka jihozi samarali hisoblanadi. Mazkur jihoz cho'ziluvchanligi yuqori bo'lgan (yoqa, buyum yon chetlari, cho'ntaklar v.x.) detallarni biriktirib tikishda ishlatiladi. Tikuv mashinasini konstruktiv xususiyati; bir, ikki va uch ipli bo'ladi. Buyum detal chetlari

biriktirilganidan so'ng igna harakatga kelib detal chetida zanjirsimon chok hosil bo'ladi. Ikki qatlamli to'qima yordamida olinib ketlovkada biriktirilgan kiyimlarni ikki tomonlama kiyish imkoniyati bor. O'mizlarga moslash imkoniyati mavjud bo'lib, igna ko'rinishi to'g'ri yoki yoysimon bo'ladi.



19-rasm. Trikotaj mahsulotlarini choksiz biriktiruvchi ketlovka mashinasi

To'quv ishlab chiqarishda sifatli va kam xarajatlar bilan ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan, bu holatda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun olinadigan matoning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishi va buning natijasida ustki kiyimlarga raqobatbardoshlik darajasini oshiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar yangi ishlab chiqarilayotgan matoning keltirilgan xarajatlari ishlab turgan amaldagi variantga qaraganda samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Taklif qilinayotgan variantda yangi qurilmani tayyorlash uchun xarajatlar 30000 ming so'mni tashkil etdi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan ikki qatlamli trikotaj to'qimalaridan olingan ayollar ustki kiyimlari o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlillari natijasida mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalariga asosan, bir yilga ayollar trikotaj kiyimlarini sanoat sharoitida ishlab chiqarib sotishdan (1 dona mahsulot uchun) 16800000 so'm iqtisodiy samaradorlikga erishilganligi aniqlandi.

XULOSALAR

Disertatsiya mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari quyidagilardan iborat.

1. O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra assortiment tanlashda respodentlarning afzalliklari, ranglar kompozitsiyasi, bichimi, yoshi ikki qatlamli ustki trikotaj turlari hamda kiyim loyihalash jarayoniga tadbqiq etish bo'yicha tahlil qilindi.

2. Fizik-mexanik hususiyatlari, texnologik ko'rsatgichlari, naqshi va tolaviy tarkiblari bashoratlangan ayollar ustki trikotaj buyumlarining yangi eskiz model namunalari yaratildi.

3. Zamonaviy WONDERFULL yassi ignadonli fond mashinasida poliakrinitril ipidan yangi oltita variantdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi olindi.

4. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi va qiyoslash gistagrammasi asosida loyihalashning matematik modeli taklif qilindi.

5. Ishlab chiqilgan matematik modellar tahlili asosida trikotaj to‘qimasini olish jarayonida to‘qimani hajm zichligi ko‘rsatkichi tezligi 40 dan 80 oraliqdagi qiymatlarida trikotaj to‘qimasini bo‘yi bo‘yicha cho‘zilish xossalari eng past ko‘rsatkichga ega ekanligi va standart talabi ГОСТ – 28554 ga muvofiqligi aniqlangan va asoslangan.

6. Ayollar ustki trikotaj buyumlarining shartli qayishqoq va shartli qoldiq deformatsiyasi koefitsenti hissoqlab chiqildi.

7. ВДМИТ metodikasi bo‘yicha ayollar ustki trikotaj mahsulotlarini asos konstruktsiya chizmalari bo‘yicha modellashtirib soddalashtirilgan variantdagi konstruktsiyasi yaratildi.

8. Ikki qatlamli trikotaj buyumlarini o‘ngi va teskarisini kiyish uchun birlashtirib beruvchi “Ketlovka” zamonaviy tikuv jihozidan foydalanib ustki trikotaj kiyimlari ishlab chiqildi.

9. Ikki qatlamli ustki trikotajlarining ijobiy xususiyatlarini bashoratlash xomashyo-trikotaj-tayyor kiyim konsepsiyasi asosida ayollar zamonaviy kiyimini ishlab chiqishdagi samaradorligi 16800000 so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/04.10.2023.Т.174.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ЭРГАШЕВА РАШИДА АБДУГАНИЕВНА

**ИССЛЕДОВАНИЕ ПО РАЗРАБОТКЕ ДИЗАЙН-ПРОЕКТА
ЖЕНСКОЙ ВЕРХНЕЙ ОДЕЖДЫ НА ОСНОВЕ
ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ТИПА ТРИКОТАЖНОЙ ТКАНИ.**

05.06.04 - Технология швейных изделий и дизайн костюма

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2019.1.PhD/T1027

Диссертация выполнена в Наманганском институте текстильной промышленности
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Наманганском институте текстильной промышленности (www.ntsuz.uz) и «ZiyoNet» Информационно-образовательном портале (www.ziyo.net)

Научный руководитель:

Холиков Курбонали Мадаминович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Пулатова Сабохат Усмановна
доктор технических наук, профессор

Шогафуров Шахбоз Шокиржон угли
доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Андижанский машиностроительный институт

Защита диссертации состоится “15” февраля 2025 года в 15³⁰ часов на заседании при научном совете PhD.03/04.10.2023.T.174.01 при Наманганском институте текстильной промышленности (Адрес: 160605, г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04. e-mail: info@ntsuz.uz, 1-здание Наманганского института текстильной промышленности, 1-этаж, зал совещаний)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского института текстильной промышленности (зарегистрирован под номером №10). (Адрес: 160605, г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998)55-251-43-04, (998)55-255-43-04.)

Автореферат диссертации разослан “04” февраля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 29 от “13” ноября 2024 года).



З.Э.Эркинов
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Х.Т.Бобожанов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Ж.К.Юлдашев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировом масштабе производство трикотажных тканей и готовой продукции занимает одно из ведущих мест в текстильной и легкой промышленности. Особое внимание уделяется вопросам расширения ассортимента продукции и эффективного использования ресурсосберегающих технологий, а также производству двухслойных трикотажных тканей, характерных для данного вида одежды. В то же время потребность в получении качественных и конкурентоспособных женских трикотажных готовых изделий основывается на концепции сырья-ткани-верха, а совершенствование дизайна швейных изделий в соответствии с модными требованиями, чтобы они выглядели стильно, приобретает все большее значение.

Среди важнейших научно-практических задач-автоматизация технологий с учетом особенностей мирового сырья, создание нового ассортимента конкурентоспособной и экспортно-ориентированной швейно-трикотажной продукции и проектирование женской верхней трикотажной одежды.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «о новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», от 12 февраля 2019 года № ПФ-4186 «О мерах по дальнейшему углублению реформирования текстильной и швейно-трикотажной промышленности и расширению ее экспортного потенциала», 2019 год 16 сентябрьские постановления № ПП-4453 «о мерах по дальнейшему развитию легкой промышленности и стимулированию производства готовой продукции», 2024 год, Данная диссертационная работа в определенной степени послужит реализации задач, поставленных на видео селекторном совещании по вопросам увеличения объемов экспорта и инвестиций в текстильную отрасль под председательством Президента 16 апреля.¹

Приоритетным направлениям исследований соответствует развития науки и техники Республики. Диссертационная работа исследования развития науки и техники Республики. Соответствует приоритетному направлению энергетика, энергосбережение и ресурсосбережение".

Степень изученности проблемы. Сегодня проблемы, связанные с этой темой, рассматриваются в научных работах ряда ученых. В связи с совершенствованием технологии получения трикотажных изделий, созданием новой техники-технологии текстильной и легкой промышленности, развитием текстильной сырьевой базы, а также проведением на их основе широкомасштабной работы по производству швейно-трикотажной готовой продукции зарубежные ученые в том числе: А.С. Долидович, Е.П. Пospelов, И.И. Шалов, Л.А. Кудрявин, В.М. Лазаренко, В.А. Зиноева, И.Г. Цитович, Е.Онофрей, С.А.Фридрихом и другими.

Из узбекских ученых М.М.Мукимов., Х.Алимова., Н.Р.Хонхаджаева., Ф.У.Нигматовой., С. Ш. Ташпулатов., М.Холиков., Б.Ф.Мирусманов.,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП №60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы

К.З.Юнусов, Н.Н.Набиджанова, Н.В.Максудов, А.В.Касимова и др. проводят научные исследования процессов переработки сырья, совершенствования технологии и проектирования расширения ассортимента швейно-трикотажной готовой продукции.

